



**CHOY, UNING TURLARI VA CHOY BILAN BOG'LIQ
LEKSEMALARNING LEKSIKOGRAFIK TADQIQI**

Temirova Kamola Baxtiyor qizi

kamolatemirova28@gmail.ru

Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8054903>

Annotatsiya: Ushbu maqolada ichimliklar, ularning turlari, issiq ichimliklar sirasiga kiruvchi choy haqida ma'lumot berilgan. Choy tarixi, uni damlash sirlari, ichiga solinadigan masallig'iga qarab choy turlari haqida ham bayo etilgan. Shuningdek, maqolada choy va u bilan bog'liq leksemalarning izohli lug'atlarda berilishi misollar vositasida yoritilgan.

Kalit so'zlar: ichimlik, choy, issiq ichimliklar, yaxna ichimliklar, meva hamda rezavor qo'shib damlangan choy ichimliklari, dorivor o'simliklar bilan damlanadigan choylar, shirin sutli va moyli choylar, choynak va hokazo

Abstract: This article provides information about drinks, their types, and tea, which is included in the list of hot drinks. The history of tea, the secrets of brewing it, and the types of tea depending on the flavor that is added to it are also described. Also, in the article, the presentation of tea and related lexemes in explanatory dictionaries is covered by means of examples.

Key words: beverage, tea, hot drinks, soft drinks, tea drinks infused with fruit and berries, teas infused with medicinal plants, sweet milk and oil teas, teapot, etc. Ma'lumki, terminologiya til lug'at boyligining ajralmas tarkibiy qismini tashkil etadi. Uning tarkibidagi so'z va terminlarning paydo bo'lishi tarixi uzoq. Ularning paydo bo'lishi va umumiste'molga kirishuvi yozma manbalarning guvohlik berishicha, qadimgi davrlarga borib taqaladi.

Insoniyat ibtidoiy jamoa tuzumi davridan buyon doimiy ravishda izlanishda bo'lib keladi. U mehnat qilish jarayonlarini takomillashtirish va yangilash borasida tinimsiz izlanishlar olib boradi. Qadimdan insonlar har doim nimanidir yaratish orqali kundalik ehtiyoji uchun zarur bo'lgan jarayonlar bilan bog'liq yumushlarni yengillashtirish harakatida bo'lishgan. Shu tufayli ular juda ko'plab yangiliklar, kashfiyotlar yaratishgan. Ular orqali jamiyat taraqqiy eta boshlaganligi bois mehnat jarayonida ishtirok etuvchilar, turli-tuman kasb va hunar egalari hamda ularning ish faoliyatlarini ifodalovchi juda ko'plab terminlar paydo bo'lishiga olib kela boshlagan. Choy nima? – degan savolga ko'pchilik: - Bitta ichimlik-da, - deb javob beradi.

Choy haqida batafsilroq fikr yuritishdan oldin ichimlik atamasiga izoh yozsak.

Ichimlik deb odam iste'mol qilishi uchun tayyorlanadigan suyuqlikka aytiladi.





ITALY



ITALY

Atama ichish so'zidan olingan. Ichimlik O'TILda quyidagicha izohlangan. Ichiladigan narsalar (mas.,sharbat, suv). Spirtli ichimliklar. Chanqovbosdi ichimliklar.¹

Ichimliklar tarkibidagi alkogol miqdoriga qarab spirtsiz va spirtli ichimliklarga ajratiladi. Eng keng tarqalgan ichimlik chuchuk suvdir. Suv odam va boshqa organizmlar uchun muhim suyuqlik bo'lib, odam tanasining taxminan 70 %ini tashkil etadi.

Issiq ichimliklar. Bularga issiq choy, sut, qahva va boshqalar kiradi. Biroq choy va sut yaxna holda ichilishi ham mumkin.

Yaxna ichimliklar. Yaxna ichimliklar sovutib ichiladi. Bularga sovuq choy, sharbat, limonad, alkogolsiz pivo va boshqalar kiradi.

Issiq ichimliklar sirasiga, shuningdek, yaxna holda sovutib ichiladigan ichimlikka misol bo'luvchi, O'zbekistonda turmush tarzining an'anaviy bir bo'lagi, odamlar o'rtasida o'zaro munosabat vositasi, ko'pgina kasalliklar uchun dori-darmon, chanqoqbosdi ichimlik choy hisoblanadi. O'zbek xalqi turmush tarzidagi o'zaro aloqalarning tarixiy takomili jarayonida, hatto mehmondo'stlikning choy bilan bog'liq ayrim shakllari ham mavjud.

Choy- inson qadimgi davrlardan eka boshlagan madaniy o'simliklardan biri sanaladi. Olimlar choyni bundan 3 ming yil (ba'zi manbalarda 5000 yil) muqaddam Xitoyda o'stirilganini aniqlaganlar. U dastlab Xitoyda o'stirila boshlangani uchun nomi ham xitoycha "cha-iyе" degan ikki so'zdan olingan bo'lib, "yashil barg" ma'nosini anglatadi.

Choy damlash ham bir san'at. O'z nomi bilan, suvni qaynatib, unga qora yoki ko'k choy solib oddiygina damlanadi. O'zbekcha choy damlashning bu kabi oddiy va soda usullari sakkizta. Bularning ikki xilidan boshqasi hanuz damlanadi. Juft choynakda choy bilan qumg'onda qaynatilgan choy usullari unutilgan. Biroq juft choynakdagi choy dasturxonda kishiga estetik zavq bag'ishlasa, qumg'onda qaynatilgan choy qishloq xo'jalik ishlari paytida amaliy ahamiyatga molik. Shu boisdan ularni tiklash zaruriyati tug'iladi.

Choy damlashda ichiga solinadigan masallig'iga qarab quyidagicha choy nomlarini keltirishimiz mumkin.²

Meva hamda rezavor qo'shib damlangan choy ichimliklari: o'rikli choy, olmalı choy, olma va asalli choy, limonli choy, limonli va asalli choy, chilonjiydali choy, na'matakli choy, smorodinali choy, mayizli choy va hokazo.

Dorivor o'simliklar bilan damlanadigan choylar: murchli choy, murch va asalli choy, za'faronli choy, qalampirmunchoqli choy, sedanali choy, rayhonli

¹ O'zbek tilining izohli lug'ati. 2-tom. 250-bet

² Карим Махмудов. Чойнома. Т.:Камалак. 1993. –Б15





choy, zirali choy, kiyiko'tli choy, yalpizli choy, limono'tli choy, sariq xalilali choy, qora xalilali choy, dolchinli choy, zanjabilli choy, arpabodiyonli choy, bodiyonli choy, jovzi bovvali choy, zirkli choy, kashnich urug'li choy va hokazo.

Shirin sutli va moyli choylar: qand choy, novvot choy, murabboli choy, sutli choy, sut va asalli choy, shirchoy, qaymoqli choy (oq choy), ko'k yog'li choy va hokazo.

Shuningdek, choy O'TILda quyidagicha izohlangan va uning bir nechta ma'nolari haqida izoh qoldirilgan.³

Choy [t.f. < xit. cha] **1. Bargi damlab ichiladigan, janubiy o'lkalarda o'suvchi doimiy yashil buta daraxti, buta.** *Choy plantatsiyalari. Choy o'simligi 2-3 yoshlik bo'lganda, tuplarga shakl beriladi, yon shoxlar kesiladi. "O'zME".*

2. Shu o'simlikning quritib maxsus ishlangan, maydalangan, damlab ichiladigan barglari. *Ko'k choy. Hind choyi. Seylon choyi. Gruzin choyi. Bir damlam choy. Choy quti. Ko'kragimda voyim qoldi, uch yumaloq choyim qoldi. Ergash Jumanbulbul o'g'li. Ko'k choyni ko'k choynakka damlab, ko'k ko'zli, ko'ylagi ko'k Karimga berdimi? Tez aytish.*

3. Shu o'simlikning maxsus ishlangan, maydalangan barglaridan damlangan xushbo'y ichimlik. *Bir piyola choy. Achchiq choy. Issiq choy. Yaxna choy. Hindining ichgani asl choy bo'lar. «Gulnorpari».*

4. Shu ichimlik bilan birga ovqatlanish. *Ertalabki choy. Tushki choy. Sidiqjon choyni kutmay, ishga ketdi. A. Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari. [Anzirat xola] Choy ma-halida goh kulib, goh yig'lamsirab, o'zi, bolalari to'g'risida gapirdi. A. Qahhor, Qo'sh-chinor chiroqlari.*

Olma choy q. olma. Sut choy Sutli choy. **Qora choy 1)** qurug'i qora tusda, damlaganda, to'q qizg'ish rang chiqaradigan choy; 2) sutsiz choy.

Shuningdek lug'atda choy bilan bog'liq bo'lgan ayrim leksemalarning izohi keltirilgan. **Choygum** s.t.Choydush. [Suyarqulning] *Onasi choy damlab, choygumga yana suv to'ldirayotgan ekan. A.Ko'chimov, Halqa.*⁴ **Choydush.** Suv, choy qaynatiladigan metal idish, qumg'on. ⁵ **Choydon.** Choy idish, choy quti.⁶ **Choyjo'sh** [xit+f. -choy qaynatuvchi] shv. Choydush, chovgun. *Nu'monjon choyjo'shni qaynatish uchun o't yoqdi. O.Husanov, Nay*⁷. **Choynak** [r.chaynik-choy idish]. Choy damlab ichiladigan, jo'mrakli va dastali idish, uy-ro'zg'or asbobi. Chinni choynak. Mis choynak. Bir choynak choy. *Nusratbek ustiga sochiq*


³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Т.: Ўзбекистон НМИУ, 2020. 4-том. - Б. 503

⁴ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Т.: Ўзбекистон НМИУ, 2020. 4-том. - Б. 503

⁵ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Т.: Ўзбекистон НМИУ, 2020. 4-том. - Б. 503

⁶ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Т.: Ўзбекистон НМИУ, 2020. 4-том. - Б. 503

⁷ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Т.: Ўзбекистон НМИУ, 2020. 4-том. - Б. 503





ITALY



ITALY

yopilgan choynakdagi choyni qaytarib, bir piyolaga qo'ydi. S.Nurov, Maysalarni ayoz urmaydi. Bo'ta...choynakning qopqog'ini teskari yopib, ikkita besh tiyinlikni tashlab, o'rnidan turdi. ⁸ **Choyxona** [choy+xona] Choy ichib, tamaddi qilib, hordiq chiqariladigan jamoat joyi; samovar, samovarxona. Mahalla choxonasi. Otalar choyxonasi. *Choyxonada uch-to'rt chol chaq-chaq suhbat qiladi. Bozordagi choyxonalarining hammasi sershovqin va to'polon bo'ladi.* F.Musajonov, Himmat.

Choyxona palov q, palov. Choyxona palovlarda oshning sabzisini albatta Elchiyev to'g'raydi. E.A'zamov, Javob.⁹

Choyxonachi Choyxonada xizmat qiluvchi, choyxonada choy sotuvchi yoki choy tashib beruvchi kishi. *Choyxo'rlar ko'pligidan choyxonachining qo'li-qo'luga tegmaydi.* Gazetadan. ¹⁰.

Choy-quvvatga boy ne'mat, hordiq chiqaruvchi, tetiklashtiruvchi ichimlikdir. Choy va u bilan bog'liq leksemalarning semantik va konseptual xususiyatlari milliy mentalitetni ifodalashda o'ziga xos mavqega ega.

Milliylikni o'zida mujassam etuvchi choy terminologiyasining o'ziga xos yasaliş sistemasi mavjud bo'lib, unda, asosan, affiksatsion, kompozitsion hamda semantik usul ancha faolligi bilan ajralib turadi. Bu esa soha terminlari yasaliş yuzasidan keng qamrovli tadqiq etish bugungi tilshunosligimiz oldidagi muhim masalalardan biri ekanligidan dalolat beradi.

Foydalaniladigan adabiyotlar:

1. К. Махмудов. Қизикарли пазандалик. «Ўқитувчи» Тошкент, 1987.
2. К. Махмудов. Очил дастурхон. «Ўқитувчи», Тошкент, 1988.
3. К. Махмудов. Ўзбек таомлари, қайта ишланган ва тўлдирилган тўртинчи
4. нашри, «Ўзбекистон нашриёти, Тошкент-1977.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Т.: Ўзбекистон НМИУ, 2020
6. Карим Махмудов. Чойнома. Т.:Камалак. 1993. –Б15
7. Махмудов И. Ўзбек тансиқ таомлари. – Тошкент: Меҳнат, 1989. –341 б.
8. Расулов Р. Лексико-семантические группы глаголов состояния и их валентность. – Тошкент: Фаң, 1991. – 176 с.

⁸ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Т.: Ўзбекистон НМИУ, 2020. 4-том. - Б. 504

⁹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Т.: Ўзбекистон НМИУ, 2020. 4-том. - Б. 504

¹⁰ Карим Махмудов. Чойнома. Т.:Камалак. 1993. –Б15

